

## **Shahrisabz shahrining shakllanish xususiyatlari**


Magistrant - S. U.Tursunov ;    Ilmiy raxbar - arx.f.n. dots. A.B.Balgaev

O'рта Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan biri bo'lgan Shahrisabz buyuk Amir Temurning muborak nomi bilan bog'liq shonli tarixga ega. Shahrisabz "Yashil shaxar" toponimi, ilk bor 1351-yilda chig'atoy xon Bo'yonqulixon nomidan zarb etilgan tangalarda uchraydi. 1352-yilda shu xon nomidan zarb qilingan tangalarda Kesh nomi ham bor. Shahar bir vaqtning o'zida ko'hna va yangi nomi bilan yuritilishi uchrab turadigan hol. Chunonchi, XIII asrga oid tangalarda Toshkentga nisbatan turli davrlarda qo'llanilgan uch nom - Shosh, Binkant, va Toshkent qayd etilgan. Musulmon manbalarida ilk bor Kesh nomi dastaval VII asr oxiri va VII asr boshlarida qo'llanilgan.

O'рта asrlar yozma manmularida Kesh deb atalgan viloyat hududi Zarafshon tizma tog'ining janubiy yonbag'irlaridan boshlanib, hozirgi Kitob shahrining janubiy Yakkabog', G'uzor, O'radaryo vohasi yerlarini o'z ichiga olinganligi qayd etilgan. Uning markaziy shahri – Shahrisabz Kitob vohasida rivoj topgan.

Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismida bu davrga oid 30 dan ortiq qal'alar, uy qo'rg'onlar, qishloq va shahar xarobalari topilgan. Yakkabog' tog'larini yonbag'rida joylashgan Daratepada mil. avv. VII- IV asrlarga oid g'isht va paxsadan qurilgan uy-joylar qazib ochilgan. Zarafshon tog' tizmasi oldidagi Sho'robsoy Bo'yidagi Sangirtepa, Uzunqir va Podayotoqtepa yodgorlikari tekshirilgan. Sangirtepa o'rnida saroy shaklida qurilgan katta bir inshoot qoldiqlari o'rganilgan. Keng maydonni egallagan Uzunqir (**70**ga) vohaning harbiy va ma'muriy markazi bo'lgan.

Arab muallifi Al-Yaqubiy ma'lumotiga ko'ra, Kesh ma'lum muddat butun So'g'dning poytaxtiga aylangan. Kesh shahri VII asrda siyosiy-iqtisodiy va ma'daniy jihatdan yuksak darajada rivojlanib, Xitoy bilan siyosiy-iqtisodiy va madaniy aloqalari kuchaygan. Buyuk ipak yo'li orqali Kesh savdogarlari Uzoq sharq shaharlarigacha yetib broganlar. (1-rasm.)



**1-rasm Qashqadaryodagi karvon yo'llari**

VII- IX asrlarda Kesh va Nashxab Qashqadaryo vohasining asosiy shaharlari bo'lib qolgan edi. Ularning har birida ark, mustahkamlangan ichki shahar (madina, shahriston) va shahar atrofi – rabod mavjud bo'lgan. X asr arab mualliflari shahodat berishicha, Keshning shahristoni va ko'handizi ushbu davrda tashlandiq holga kelib qolgan. Keshda olib borilgan qazishmalar shundan dalolat beradi.

Shahrisabz atrofida joylashgan o'rta asr shaharlari ichida ark murakkab tarhga ega bo'lgan. Choshtepa va Sariqtepa yodgorliklari diqqatni tortadi. Choshtepa Shahrisabzning janubiy chetida joylashgan. Bir vaqtlar maydoni 10 gektarga teng bo'lgan yirik manzilgohda to'g'ri burchak shaklidagi keng xandaq bilan o'ralgan qo'rg'on (125x 100 m, balandligi 10 m) saqlangan.

Shahrisabz hudidida kelajakda olib boriladigan arxiologik tadqiqotlar Keshning IX-XII asrlardagi qarorgohini aniqlash, masalasiga aniqlik kiritish mumkin. Fikrimizcha u Choshtepa o'rnida joylashgan. Shu bilan birga, IX-XII asrlar Kesh ikki qismdan ark va mustahkamlanmagan shahristondan iborat, nisbatan o'rta hajimli shahar bo'lishi mumkinligini ham inobatga olish kerak. Ushbu turga Choshtepa bilan

birgalikda hozirgi Shahrisabzdan g'arbda joylashgan Sariqtepa yodgorligi ham kiradi.

**Shahrisabz shahri markazini shakllanish xususiyatlari.** Islom davri manbalaridan Kesh to'g'risidagi ma'lumot at-Tabriyning tarixiy asarida, Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olon tasvirida uchraydi. IX asr muallifi al-Yaqubiy Keshni "So'g'dning bosh shaxri" deb, uning zamondoshi Ibn al-Faqih esa "Samarqand viloyatidagi shahar" deb tavsiflashgan. X asr oxirida al-Maqdisiy Keshni Buxoro viloyati tarkibiga kiritgan.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra Qalandartepaning shimoliy qismi VIII-IX asrlarda ham obod qilingan. Qal'a hududida XII asr XIII asr boshlarida kechgan hayot izlari ham mavjud. Ichki shahar hududida X-XI asrlarda ham hayot davom etgan bo'lishi mumkin, buni o'z vaqtida S.K. Kabanov ko'rsatib o'tgandi. Har holda X asrda ham bu hudud Kesh Shaxrining tarkibiy qismi bo'lganligi va musulmonlar yashagan shaharning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lmish Jome' masjidi shu yerda joylashganligi shubhasizdir.

Manbalarda Kesh shahrining kattaligi X-asrda taxminan bir farsaxning uchdan biriga teng bo'lgani ko'rsatilgan, bu 2,5 km ni tashkil qiladi.

IX-XII asrlarda Shaxrisabz o'rnida mavjud bo'lgan shahar ham shu yo'l bo'ylab cho'zilib ketgan. Bu yo'l ayni vaqtda shaharning asosiy ko'chasi bo'lgan. Shahrisabz bilan Kitob orasidagi masofa 5-6 km ni tashkil etgan. Bordiyu Kesh shahri X-asrda 2,5 km ga cho'zilgan bo'lsa, uning rabodining janubiy chekkasi o'sha vaqtdayoq Shahrisabzdan 3-4 km masofada joylashgan. Shu bois keyingi asrlarda Keshning savdo-hunarmandchilik rabodi Keshning Shaxrisabz o'rnida joylashgan yo'ldosh shaharchasi bo'lgan boshqa bir savdo - hunarmandchilik rabodi bilan qo'shib ketgan bo'lishi mumkin.

Shahrisabz - Barknon o'rnidagi dasdlabki manzil V - VI asrlarda vujudga kelgan, uning negizi Shahrisabzdan 300 m shimolroqda joylashgan. Balandtepa yoki Zinbontepa xarobalari o'rnida bo'lgan. Shu davrda bu yerda mahalliy hukumdorning

mustahkam qasri joylashgan bo'lib, uning ichida Zardushtiy ibodatxonasi ham bo'lgan. XIX asrda ham mahalliy aholining ayrim vakillari bu joyga kelib eski Zardushtiy dinining mabudlariga sajda qilganlar. Har yili muqaddas Navruz barmida esa bu yerda xalq sayillari o'tkazilgan. Dastlab bu qasr atrofida devor bilan o'ralmagan manzillar bo'lib VII- VIII asrlarda ularning maydoni kengaygan. IX –X asrlarga kelib esa bu shaharcha muhim savdo –hunarmandchilik markaziga aylangan.

XI – XII asrlarda Kesh shahrining hayot markazi asta sekin bu yerga ko'ch boshlagan. Aftidan, XII asrda bu shaharga Kesh nomi berilgan, Barknon nomi esa istifodadan chiqib, faqat shaharning mahallalaridan biriga nisbatan qo'llanila boshlagan.

Eng avvalo, bo'lajak shahar maydoniga odamlar VI –VIII asrlarda ko'chib kela boshlagani isbotlandi. Aftidan, bu yerda o'sha davrda yirik manzil bo'lgan ko'rinadi. Shu tariqa eski shahar xarobaga aylangani sari odamlar undan avval obod bo'la boshlagan joyga ko'chishga intilganlar. Shahar maydonida olib borilgan deyarli barcha qazishmalarda hamda ochilgan sho'rflarda IX –XII asr qatlamlari aniqlangan va ularning qalinligi 1metr dan 3metr gacha yetgan. Bu hol mazkur maydon jadal suratlar bilan obod qilinganidan darak beradi. Ayrim qazishmalar haqida hikoya qilish mumkin. Oqsaroy peshtoqidan janub tamonda , saroy sahnidan pasroqda , pishiq g'isht to'shalgan sath va X- XI asr keramikasi qoldiqlarini o'z ichiga olgan qatlam ketgan.

Chorsu gumbazidan 50metr janubroqda o'tkazilgan qazish ishlarida devorlari bo'lgan hamda pishiq g'isht yotqilgan kapital imorat qoldilqridan iborat katta qatlam ochildigan. Kerameka shu jumladan ko'p miqdorda topilganiga ko'ra, u XI-XII asrlarga ta'luqli deb hisoblanagan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shahrizabz. Ming yillar me'rosi.-T.: "Sharq", 2002.-228 b.+64 zarv.
2. Polatov X. Shaharsozlik tarixi.-O'quv qo'llanma – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008.296 b.
3. Qadimgi Kesh -Shahrizabz tarixidan lavxalar. T. "Sharq" , 1998. 10-bet